




NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2022- YIL YANVAR-NOYABR (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 79-223-33-29


www.navstat.uz

Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



2022- yil yanvar-noyabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 62 233,9 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 81,0 % ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 76 845,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,2 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 12,2 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 10,9 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,2 %, ga oshganidir.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda – 1,6 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 535,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,7 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat


2022- yil yanvar-noyabr oylarida



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 62 233,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,0 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 10,9 % (8,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 81,9 % (84,1 %) va quyi texnologiyalisi – 7,0 % (7,2 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 84,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 74,0 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 105,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,8 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 106,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,9 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 106,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 8,8 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 92,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 722,3 ming tonna suvsiz ammiak (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 114,1 % ga o'sgan), 225,6 ming tonna azot mochevina (karbamid) (126,6 %), 3,0 ming m³ argon (4,8 m) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Portlandsement, ming tonna.	3 459,4	2 888,4	- 571,0
Mochevina (karbamid), ming tonna azot.	178,2	225,6	47,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	57 679,0	54 162,0	- 3 517,0
Azot, ming m ³ .	13,7	515,6	501,9
Argon, ming m ³ .	25,7	125,3	99,6
Suvsiz ammiak, ming tonna.	632,9	722,3	89,4
Kalsiy xlorid, ming tonna.	3,4	3,0	0,4
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	4 690,0	6 001,7	1 311,7

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yil yanvar-noyabr oylarida

Kislorod ishlab chiqarish sanoati

Viloyatimizda 2022- yil yanvar-noyabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 152,7 ming m³ kislorod ishlab chiqarildi. Kislorod ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,7 % ni tashkil etdi.



Argon ishlab chiqarish sanoati

Viloyatimizda 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 125,3 ming m³ argon ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,9 (m) ga ko'paygan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yil yanvar-noyabr oylarida

Azot ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida jami 515,6 ming m³ azot ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37,7 (m) ga ko'paygan.



Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 6 001,7 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,0 % ga ko'paygan.



Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 75,3 % ni, uning fizik hajm indeksi 96,2 % ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 74,0 % ni, fizik hajm indeksi esa, 5,3 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 46 079,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 53,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 539,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 10,1 % ga oshgan, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 821,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 37,8 % ga oshgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi 112,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 399,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 5,4 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 %, fizik hajm indeksi 101,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 947,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 174,6 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,7 % ni, fizik hajm indeksi 127,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5 389,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 041,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,3 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,2 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	9 948,2	10 516,8	568,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3 936,2	4 248,3	312,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,04 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-noyabr	2022-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	59 839,6	65 313,6	5 474,0
Oqava suvlarning shlami, mln. so'm	4 899,9	9 220,2	4 320,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan Oqava suvlarning shlami 188,2 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 109,1 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 161,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-noyabr oylari mos davriga nisbatan 103,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 1 711,5 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 4,3 % ga oshdi.

2021- yilning shu davriga nisbatan hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda Navoiy shahrida (115,9 %), Xatirchi tumanida (105,4 %), Navbahor tumanida (104,0 %) va Konimex tumanida (103,6 %) yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 41,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 58,9 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 42,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 57,8 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 104,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 103,5 % ni tashkil etdi.







Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 23,2 %, shuningdek, Navoiy shahri 22,8 % ni, Qiziltepa tumani 13,4 % ni, Xatirchi tumani 12,6 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 26,6 %, shuningdek, Navoiy shahri 20,3 % ni, Xatirchi tumani 12,1 % ni, Navbahor tumani 9,8 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 26,4 % ni, Qiziltepa tumanida 20,1 % ni va Karmana tumani 18,4 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyati

1 393,6 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-noyabr

1 597,4 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-noyabr

1 711,5 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-noyabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

41,1 %

2020- yil


104,0 %

2021- yil

111,7 %

2022- yil

104,3 %





o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 84,7 % ni, shuningdek, Karmana tumaniga 9,6 % ni hamda Qiziltepa tumaniga esa 1,9 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyati



■ o'sish sur'ati
■ mlrd. so'm

2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 3 966 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 833 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,0 %) Navoiy shahriga, 660 tasi (16,6 %) Karmana tumaniga, 485 tasi (12,2 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

840 dona

2020- yil yanvar-noyabr

1 037 dona

2021- yil yanvar-noyabr

873 dona

2022- yil yanvar-noyabr



Jami faoliyat yuritayotgan

3 252 dona

2020- yil yanvar-noyabr

3 635 dona

2021- yil yanvar-noyabr

3 966 dona

2022- yil yanvar-noyabr

